

MEHNAT FAOLIYATIDA XOTIN-QIZLARNING O‘RNI VA ROLI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-20-54-57>

Utamurodov Alisher Alimjonovich

alisherutamurodov5@gmail.com

Alisher Navoiy nomidagi

Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

Psixologiya va sotsiologiya kafedrası o‘qituvchisi

Mamajonova Zarinabonu Iqboljon qizi

Alisher Navoiy nomidagi

Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

Psixologiya va sotsiologiya kafedrası

sotsiologiya yo‘nalishi talabasi

zarinabonumamazonova@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada mehnat faoliyatida xotin-qizlarning o‘rni va roli tahlil qilinadi. Xotin-qizlarning jamiyat taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi yoritib beriladi. Iqtisodiy rivojlanishda ayollarning faol ishtiroki muhimligi ta‘kidlanadi. Ish joylarida gender tenglikni ta‘minlash masalalari ko‘rib chiqiladi. Ayollarning mehnat faoliyatidagi huquqlari va kafolatlari o‘rganiladi. Ijtimoiy sohalarida xotin qizlarning mehnati alohida tahlil qilinadi. Davlat siyosatida ayollar bandligini qo‘llab-quvvatlash choralari ko‘rsatib o‘tiladi. Xotin-qizlarning mehnat bozorida uchraydigan muammolari yoritiladi. Ularning rahbarlik lavozimlarida tutgan o‘rni o‘rganiladi. Maqola yakunida ayollarning mehnat faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha xulosalar beriladi.

Kalit so‘zlar: Xotin-qizlar, mehnat, faoliyat, jamiyat, tenglik, rivojlanish, siyosat, huquq, muammo, rahbarlik.

Kirish.

Bugungi globallashuv jarayonida xotin-qizlarning mehnat faoliyatidagi o‘rni va roli tobora ortib bormoqda. Jamiyat taraqqiyotini ta‘minlashda, iqtisodiy barqarorlikka erishishda hamda ijtimoiy hayotni rivojlantirishda ayollarning hissasi beqiyosdir. Ayollarning mehnat bozoridagi faol ishtiroki nafaqat oilaviy farovonlik, balki mamlakat taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Shu bois, mehnat faoliyatida gender tenglikni ta‘minlash, xotin-qizlarning huquqlarini kafolatlash va ularning bandligini qo‘llab-quvvatlash masalalari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida ham xotin-qizlarning ijtimoiy hayotdagi o‘rnini kuchaytirish, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayollarning tadbirkorlik faoliyati uchun yaratilayotgan sharoitlar, ularning rahbarlik lavozimlarida faoliyat yuritishiga keng imkoniyatlar berilishi ham bu yo‘nalishda olib borilayotgan siyosatning muhim ko‘rinishlaridandir. Shuningdek, ayollarning ilm-fan, ta‘lim, sog‘liqni saqlash,

madaniyat va boshqa sohalaridagi mehnati jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun muhim manba bo‘lib xizmat qilmoqda.

Ayniqsa, xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularni turli tashabbus va loyihalarda ishtirok ettirish, shuningdek, yosh avlodni vatanparvarlik, mehnatsevarlik va ma’naviyat ruhida tarbiyalashdagi o‘rni ham alohida e’tiborga loyiqdir. Ushbu maqolada xotin-qizlarning mehnat faoliyatidagi o‘rni va roli, ularning jamiyat rivojiga qo‘shayotgan hissasi hamda mehnat bozorida uchraydigan muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari tahlil qilinadi.

Metod va materiallar. Mazkur maqolada xotin-qizlarning mehnat faoliyatidagi o‘rnini tahlil qilishda tahliliy, taqqoslovchi va statistik metodlar qo‘llanildi. Material sifatida O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi, Jahon banki, Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO), The Global Economy, Trading Economics hamda IndexMundi kabi nufuzli xalqaro tashkilotlarning rasmiy ma’lumotlaridan foydalanildi. Ma’lumotlarning statistik bazasi 2019–2024-yillar davrini qamrab oladi.

Hujjatlar tahlili va Statistik ko‘rsatkichlar shuni ko‘rsatadiki, 2024-yilda O‘zbekistonda ayollarning mehnat bozorida ishtiroki 39,41 % ni tashkil qilgan¹. Bu ko‘rsatkich ayollarning jamiyat taraqqiyotidagi faol ishtirokini ifodalasa-da, erkaklar ko‘rsatkichidan ancha past bo‘lib qolmoqda.

Ayollarning umumiy ishchi kuchidagi ulushi esa 35,44 % ni tashkil etmoqda². Bu raqam har uch ishchidan biridan ko‘prog‘i ayollardan iborat ekanini ko‘rsatadi.

Jahon banki tomonidan 2021-yilda e’lon qilingan Gender baholash hisobotida ta’kidlanishicha, O‘zbekistonda ayollarning mehnat bozoridagi ishtiroki erkaklarnikiga nisbatan o‘rtacha 28 foiz punkt kam³. Bu tafovutning asosiy sabablari sifatida oilaviy majburiyatlar, uy-ro‘zg‘or ishlari va ijtimoiy stereotiplar keltiriladi.

Yosh guruhlari kesimida esa 15–24 yosh oralig‘idagi ayollarning mehnatga jalb qilinish darajasi 25,20 % ni tashkil qilmoqda⁴. Ushbu past ko‘rsatkich yosh ayollarning ta’lim jarayonida bo‘lishi hamda kasbiy malaka yetishmasligi bilan izohlanadi.

Ayollar orasidagi ishsizlik darajasi esa 7,03 % atrofida qayd etilgan⁵. Bu raqam erkaklarnikidan yuqoriroq bo‘lib, ayollarning ish topish jarayonida duch keladigan qiyinchiliklari mavjudligini tasdiqlaydi.

¹ The Global Economy. Female labor force participation, Uzbekistan: 2024.

URL: https://www.theglobaleconomy.com/Uzbekistan/Female_labor_force_participation

² Trading Economics. Uzbekistan – Labor force, female (% of total labor force), 2024.

URL: <https://tradingeconomics.com/uzbekistan/labor-force-female-percent-of-total-labor-force-wb-data.html>

³ World Bank. Uzbekistan Country Gender Assessment, 2021.

URL: <https://www.worldbank.org/en/country/uzbekistan/publication/country-gender-assessment-2024>

⁴ CEIC Data. Uzbekistan Labour Force Participation Rate: Aged 15–24: Female, 2024.

URL: <https://www.ceicdata.com/en/uzbekistan/labour-force/uz-labour-force-participation-rate-national-estimate-aged-1524-female>

⁵ IndexMundi. Uzbekistan – Unemployment, female (% of female labor force), 2021.

URL: <https://www.indexmundi.com/facts/uzbekistan/indicator/SL.UEM.TOTL.FE.ZS>

Xulosa. Yuqoridagi tahlillardan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekiston mehnat bozorida xotin-qizlarning o‘rni sezilarli bo‘lsa-da, ular faoliyatida bir qator muammolar saqlanib qolmoqda. Xotin-qizlar iqtisodiyotning turli sohalarida faol qatnashib, mamlakat rivojiga sezilarli hissa qo‘shmoqda. Ularning faoliyati qishloq xo‘jaligi, sanoat, savdo, ta‘lim, sog‘liqni saqlash kabi sohalarda namoyon bo‘ladi. Bundan tashqari, xotin-qizlar ko‘pincha oilaviy biznes va kichik tadbirkorlikda ham faol bo‘lib, iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi. Xotin-qizlarning jamiyat va oiladagi o‘rni juda muhimdir. Ular nafaqat mehnat bozorida, balki oilada tarbiya va ma‘naviy qadriyatlarni saqlashda, jamiyat hayotida faol ishtirok etishda ham katta ahamiyatga ega. Ularning o‘rni oilaning barqarorligi va jamiyat taraqqiyotida beqiyosdir.

2024-yilda ayollarning mehnatga jalb qilinish darajasi 39,41 % ni tashkil etgani xalqaro o‘rtacha ko‘rsatkich (51,13 %) dan pastdir. Bu esa iqtisodiy faollikda gender tafovutlari mavjudligini ko‘rsatadi. Shuningdek, umumiy ishchi kuchidagi ayollarning ulushi 35,44 % ni tashkil etgani jamiyat rivojida ularning hissasi katta bo‘lsa-da, erkaklar bilan teng imkoniyatlar mavjud emasligini ko‘rsatadi.

Ishsizlik darajasi ham gender tafovutini yaqqol ifodalaydi: 2024-yilda ayollar orasida ishsizlik 6,63 % bo‘lsa, erkaklarda bu ko‘rsatkich 3,31 % bo‘lgan. Ayniqsa, yoshlar orasida (16–30 yosh) ishsizlik darajasi yuqori, bu esa malaka va kasb-hunar tayyorgarligi yetarli emasligini, shuningdek, ayollar uchun qo‘shimcha to‘siqlar mavjudligini bildiradi.

Ayollar mehnati ko‘pincha sog‘liqni saqlash, ta‘lim va xizmat ko‘rsatish kabi sohalarda jamlangan. Ularning rahbarlik lavozimlaridagi ulushi nisbatan oshayotgan bo‘lsa-da (masalan, parlamentda 34,6 %), bu hali ham tenglikni ta‘minlash uchun yetarli emas. Shu bilan birga, ayollar tadbirkorligi sohasida ham sezilarli o‘sish kuzatilmoqda, ammo moliyaviy resurslarga kirishda muammolar mavjud.

Shunday qilib, ayollarning mehnat bozoridagi o‘rni va rolini kuchaytirish uchun davlat siyosatida quyidagi yo‘nalishlarga e‘tibor qaratish muhim:

- ayollar uchun ish o‘rinlari va bandlik dasturlarini kengaytirish;
- kasb-hunar va professional tayyorgarlikni oshirish;
- kredit va moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini tenglashtirish;
- ish joylarida gender tenglikni ta‘minlash va diskriminatsiyaga qarshi samarali mexanizmlarni joriy etish.

Ushbu xulosalar shuni ko‘rsatadiki, xotin-qizlarning iqtisodiy hayotdagi faol ishtiroki nafaqat ularning shaxsiy rivoji, balki butun jamiyat taraqqiyoti uchun muhim omil hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. The Global Economy. Uzbekistan: Female labor force participation. 2024. Rejim dostupa:

https://www.theglobaleconomy.com/Uzbekistan/Female_labor_force_participatio
(data obrashcheniya: 23.09.2025).

2. Trading Economics. Uzbekistan – Labor force, female (% of total labor force).
– 2024. – Rejim dostupa: <https://tradingeconomics.com/uzbekistan/labor-force-female-percent-of-total-labor-force-wb-data.html> (data obrashcheniya: 23.09.2025).

3. World Bank. Uzbekistan country gender assessment. – Washington, DC: World Bank, 2021. – Rejim dostupa: <https://www.worldbank.org/en/country/uzbekistan/publication/country-gender-assessment-2024> (data obrashcheniya: 23.09.2025).

4. CEIC Data. Uzbekistan labour force participation rate: Aged 15–24: Female [Elektron resurs]. – 2024. – Rejim dostupa: <https://www.ceicdata.com/en/uzbekistan/labour-force/uz-labour-force-participation-rate-national-estimate-aged-1524-female> (data obrashcheniya: 23.09.2025).

5. IndexMundi. Uzbekistan – Unemployment, female (% of female labor force). – 2021. – Rejim dostupa: <https://www.indexmundi.com/facts/uzbekistan/indicator/SL.UEM.TOTL.FE.ZS> (data obrashcheniya: 23.09.2025).